

QORAQALPOQISTON RESPUBLIKASI AYRIM TUMANLARIDA ECHKILAR ORASIDA EKTOPARAZITLARINING TARQALISHI

Kamalova A.I., - dotsent v.b., v.f.f.d. (PhD).

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpoqiston Respublikasi ayrim tumanlari echkichilik xo'jaliklarida mavjud echkilarda parazitlik qiladigan ektoparazitlar tarqalishi va mavsumiy dinamikasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Fauna, zoobiotsenoz, ektoparazit, junxo'r, akaroz, echki, parazit, *Bovicola caprea*, *Rhipicephalus bursa*, mavsumiy dinamika.

Аннотация. В статье описывается распространение и сезонная динамика эктопаразитов, паразитирующих на козах в козоводческих хозяйствах некоторых районов Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова. Фауна, зообиоценоз, эктопаразит, власоед, шерстоедательство, акароз, коза, паразит, *Bovicola caprea*, *Rhipicephalus bursa*, сезонная динамика.

Summary. The condition describes the distribution and seasonal dynamics of ectoparasites parasitizing goats in goat-breeding farms in some regions of the Republic of Karakalpakstan.

Key words. Fauna, zoobiocenosis, ectoparasite, lice, wool-eating, acarosis, goat, parasite, *Bovicola caprea*, *Rhipicephalus bursa*, seasonal dynamics.

Kirish. Chorvachilikni rivojlantirishda, aholini go'sht, sut, jun va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda shaxsiy, xususiy qo'ychilik xo'jaliklaridagi mollar bosh sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish, ularni to'g'ri parvarishlash bilan birgalikda turli ektoparazitlardan muhofaza qilish tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ayrim hududlarida echkilar sut, go'sht, teri, jun, tivit olish uchun parvarishlanmoqda. Echkichilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarda turli ektoparazitlarning uchrab turishi soha rivojlanishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, echkilar zotini yaxshilash, tuyoq sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bilan bir qatorda, ularda parazitlik qiladigan ektoparazitlarini aniqlash hamda mavsumiy dinamikasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun echkilar tanasida parazitlik qilib yashaydigan ektoparazitlar va ular qo'zg'atadigan parazitlar kasalliklar tarqalishini o'rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ayrim tumanlari echkichilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ektoparazitlar tarqalishi va mavsumiy dinamikasini o'rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot uslublari va metodikasi. Parazitologik, faunistik, ekologik, fenologik, migratsiya, terapevtik, profilaktik va boshqa tadqiqotlar veterinariya hamda tibbiyotda qabul qilingan (Herbert Ross, Paul De Bach, G.Ya.Bey-Bienko, V.A.Dogel, V.N.Beklemishev, V.V.Yaxontov, S.D.Pavlov, A.R.Ro'zimurodov va boshqa tadqiqotchilar) usullar, qo'llanma va aniqlagichlar yordamida olib borildi. Terilgan ektoparazitlar probirkalarda saqlandi. Har bir namuna etiketka bilan belgilandi. Etiketkada qora qalam bilan raqam belgisi (nomer), fermer xo'jaligi va aholi xo'jaligining nomi, joyi, parazit terilgan vaqti, hayvon turi, yoshi, hayvonning ektoparazit terilgan tana qismlari qayd qilinib borildi.

Terilgan ektoparazit turlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali va Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyasi hamda ("Атлас иксодоидных клещей" М."Колос", 1968, I.M.Ganiev va boshqa aniqlagich (1959)), kitob va qo'llanmalarida keltirilgan aniqlagichlar hamda adabiyotlardan foydalanib aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Ilmiy tadqiqot ishlari 2021-2024 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidagi "Dami-ata" fermer xo'jaligida mavjud 46 bosh echki, Qorao'zak tumanidagi "Nurtilek Qarao'zek" fermer xo'jaligida mavjud 455 bosh echki,, "Qon'iratbay-Mexri" fermer xo'jaligida mavjud 80 bosh echkilarda va aholi qaramog'idagi chorva hayvonlarida, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyasi va eksperimental tajriba hayvonlarida, jami 581 boshdan ortiq echkilarda tadqiqot ishlari olib borildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanidagi "Nur-tilek Qarao'zek" fermer xo'jaligida 455 bosh echkilar parvarish qilinadi. Ushbu xo'jalikdagi mavjud echkilarni ektoparazitlar bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida har oyning har dekedasi yil mobaynida ushbu xo'jalikdagi echkilar vizual usulda tekshirishlar o'tkazilib ulardan topilgan ektoparazitlardan namunalar olinib tekshirildi. Olingan namunalar laboratoriya sharoitida mikroskop (MBC – 1, MBC – 2) ostida o'rganilganda, namuna olingan 17 bosh yoki 33,3 foiz echkilarda Hyalomma anatolicum, Hyalomma detritum turidagi

ektoparazitlari (nimfa va yetuk shakllari) parazitlik qilish aniqlandi. Qolgan 33 bosh echkilardan olingan namunalarda ektoparazitlar topilmadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumanidagi “Qon‘iratbay-Mexri” fermer xo‘jaligidagi mavjud 80 bosh echkilarni ektoparazitlar bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida namuna olindi va namunalar laboratoriya sharoitida fiksatsiya qilindi.

Olingan namunalar SamDVMChBUNF va VITI araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyalarida tahlil qilindi.

Bahor oylarida (may) Nukus tumanidagi “Dami-ata” fermer xo‘jaligida olib borilgan tadqiqotlar davomida fermer xo‘jaligidagi 25 bosh 1 va 2,5 yoshdagi echkilarni ektoparazitlar bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida namunalar olindi va namunalar laboratoriya sharoitida fiksatsiya qilindi. Havo harorati 35°C ni tashkil qildi. Olingan namunalarni barchasi ektoparazitlar bilan zararlanganligi aniqlanib, ularning turlari mikroskop yordamida aniqlandi. Ya'ni bitlar, Hyalomma detritum va Hyalomma anatolicum ektoparazitlarning urg'ochi va erkak turlari va burgalar borligi aniqlandi (1-rasm).



1- rasm. Ektoparazit turlarini laboratoriya sharoitida aniqlash jarayoni



2- rasm. Ajratilgan yetuk Hyalomma anatolicum kanasi

Yilning yoz oylarida (avgust) Nukus tumanidagi “Dami-ata” fermer xo'jaligida olib borilgan tadqiqotlar davomida fermer xo'jaligidagi 47 bosh echkilarni ektoparazitlar bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida namuna olindi va olingan namunalar laboratoriya sharoitida fiksatsiya qilindi. Havo harorati 29°C ni tashkil qildi. Namuna olingan chorva mollarining deyarli barchasi ektoparazitlar zararlanganligi aniqlandi.

XULOSALAR

1.Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidagi “Dami-ata” fermer xo'jaligida mavjud 46 bosh echki, Qorao‘zak tumanidagi “Nurtilek Qarao‘zek” fermer xo'jaligida mavjud 455 bosh echki,, “Qon'iratbay-Mexri” fermer xo'jaligida mavjud 80 bosh echkilarda, jami 581 boshdan ortiq echkilarda tadqiqot ishlari olib borilib, ularda 4 turga mansub ektoparazitlar uchrashi aniqlandi.

2. Echkilar organizmida ektoparazitlar mavsumiy dinamika bo'yicha bahor va yoz oylarida maksimal, kuz oylarida o'rtacha darajada va qish oylarida minimal darajada tarqalishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltaev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2022). Fauna and phenoecology of zooparasites. *Annals of forest research Scopis journal*, 65(1), 854-863.
- 2.Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltayev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2023). Ecogenesis of ECTO and Endoparasites in Animals. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2238-2245.
- 3.Пулатов, Ф., Рахимов, М., Исмоилов, А., Болтаев, Д., Камалова, А., & Джалолов, А. (2022). Фауна и феноекология зоопаразитов. *in Library*, 22(4), 855-863.
- 4.Рахимов, М., Камалова, А., & Мавлонов, С. (2023). Изучение заболевания иксодидозом крупного рогатого скота в экспериментальных экспериментах. *in Library*, 3(3), 18-21.
- 5.Ainura, K. (2023). DISTRIBUTION OF ECTOPARASITES IN LIVESTOCK FARMS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium)* (Vol. 1, pp. 193-194).
- 6.Ainura, K. (2023). STUDY OF THE DISEASES IXODIDOSIS IN EXPERIMENTAL EXPERIMENTS. *MODELS AND METHODS FOR*

INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 190-196.

7.Мавланов, С., & Камалова, А. (2023). ҚОРАМОЛЛАРНИ ИКСОДИДОЗ КАСАЛЛИГИНИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАЖРИБАЛАРДА ЎРГАНИШ. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 1755-1761.

8.Мавланов, С., Камалова, А., & Маматкулов, У. (2022). Экология энтомофагов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 267-271.

Иргашев, У. К., Холов, Ш., Камалова, А. И., & Мавланов, С. И. (2021). Меры борьбы против эктопаразитов.

9.Kamalova, A. I. (2024). THE SIGNIFICANCE OF ECHINOCOCCOSIS IN VETERINARY MEDICINE AND HUMAN LIFE. *Creative Commons Attribution 4.0 International License.*, 1(5), 90-95.

10.Мавланов, С., Камалова, А., Пулотов, Ф., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатка «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в коровьем молоке. *in Library*, 2(2), 201-205.

11.Рахимов, М., Исмоилов, А., Шеркулов, А., & Камалова, А. (2024). Фауна и сезонная динамика симбионтов на пастбищах. *in Library*, 2(2), 30-33.

12.Камалова, А., Мавланов, С., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатков препарата «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в молоке крупного рогатого скота. *in Library*, 1(3), 201-205.

13.Sarsenbaeva, G. B., & Kamalova, A. I. (2024, November). QARAMALLARDA AKTINAMIKOZ KESELLIGIN XIRURGIK USILDA EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223149>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 143-146).

14.Jarilqaganova, G. J., & Kamalova, A. I. (2024, November). TAWIQLARDA KOLIBAKTERIOZ KESELLIGINIŇ ETIOLOGIYASI HÁM ALDIN ALIW USILLARIN ÚYRENIW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223189>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 146-149).

15.Kamalova, A. I., Mavlanov, S. I., & Ismoilov, A. S. (2024). EKTOPARAZITLAR BILAN ZARARLANGAN QORAMOLLAR QON KO ‘RSATKICHLARI. *Yangi O‘zbekiston ustozlari*, 2(29), 117-121.

16.Ismoilov, A. S., & Kamalova, A. I. (2025, April). ZOOFIL HASHAROTLARGA QARSHI KARATIN–50 PREPARATINING INSEKTITSID SAMARADORLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360108>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 127-130).

- 17.Kamalova, A. I., & Ismoilov, A. S. (2025, April). QORAQALPOG'ISTON CHORVACHILIGIDAGI EKTOPARAZITLAR EKOLOGIYASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360158>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 138-142).
- 18.Dzhalolov, A. A., Pulotov, F. S., & Ismailov, A. S. (2024). Insecticidal property of bioinsecticide against bovicola ovis. *European Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(7), 159-163.
- 19.Исмоилов, А. (2016). Зоофильные насекомые в биоценозах. in *Library*, 16(3), 1044-1045.